

BOLAGA RASM CHIZISHNI O'RGATISHNING AHAMIYATI

Xudoynazarova O'g'iloy Sharifovna

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrası

o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston

e-mail: xudoynazarova.88@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada bolaning rasm chizishi harakatlarining psixologik xususiyati, ularning xotirasini mustahkamlovchi rasm chizish mashg'ulotlarini o'tkazishning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *psixologik, aqliy rivojlanishi, kompozitsiya, natyurmort, geometrik shakllar, rang, fantaziya va tasavvur qilish.*

Важность детского рисования

Аннотация: *В статье говорится о важности проведения картины рисования картин, которые укрепляют память.*

Ключевые слова: *психологическое, психическое развитие, состав, ренантность, геометрические фигуры, цвет, фантазия и градуляция.*

The importance of teaching a child to draw

Annotation: *The article discusses the psychological nature of the child's drawing actions, the importance of drawing lessons that strengthen their memory*

Keywords: *psychological, mental development, composition, still life, geometric shapes, color, fantasy and imagination*

Pediatrlarning fikricha, sog'lom bola deb yaxshi o'ynaydigan, yaxshi gapiradigan va yaxshi chizadigan bolaga aytilar ekan. Xuddi til va o'yin kabi rasm bolaning ichki dunyosini ochib beruvchi vosita ekan. Shuning uchun, bola o'z ichki kechinmalarini, hissiyotlarini ifoda eta olishi uchun unga chizish imkoniyatini yaratib berish lozim.

Rasm orqali bola o'z xursandchiligi va xafagarchiligini, qo'rquvlari va fantaziyalarini, atrof-muhitga munosabatini ifoda etishi mumkin. Psixologlar

fikricha, chizmaydigan bola bo'lmaydi, agar bola chizishni istamasa, demak unda ma'lum bir psixologik stress mavjud.

Bolaning nima chizayotgani uning yoshiga bog'liq ekan. Quyida bolaning yoshiga nisbatan chizish harakatlarining o'rtacha ko'rsatkichlari keltirilgan. Albatta, bundan u yoki bu tomonga chekinish mumkin.

12-18 oy - har xil tushunarsiz chiziqlar, aylanaga oxshash shakl va ma'nosiz zigzaglar;

2 yosh - vertikal chiziqlar;

2.5 yosh - gorizontal chiziqlar, spiral;

3 yosh - doira, quyosh;

3.5 yosh - birinchi odamcha, krestik;

4 yosh - kvadrat, bola unga tanish bo'lgan narsalarni chizishga harakat qiladi;

5 yosh - geometrik shakllar, kiyim kiygan odamcha;

6 yosh - harakatdagi hayvon va odamlar, uy jihozlari, bog'cha.

Mutaxassislar chizish davrini 5 asosiy bosqichga ajratadilar:

- 2 yoshgacha - aji-buji xat. Bu bosqich bola qalamni ushlay olish davridan boshlanadi (1 yosh atrofida). Bolaning ko'zi chizayotganini kuzatadi, qo'llari qog'ozga yopishgan holatda bo'ladi. Keyinchalik qo'li bo'shashib erkinroq harakat qila boshlaydi.

- 2 yoshdan 3 yoshgacha - o'ylab topish. Bola o'zi bilmagan holda bir nimalar chizib, atrof-muhitdagi buyumlar bilan solishtiradi va o'z rasmlariga nom beradi.

- 3 yoshdan 4 yoshgacha - yangi harakatlar. Bola bilgan buyumini haqiqatdan o'ylab to'qimasdan tasvirlay olishni boshlaydi.

- 4 yoshdan 10 yoshgacha - xayoliy chizish. Bola buyumni ko'rganidek emas, u haqda bilganidek chizadi. Ya'ni uy chizsa, ko'rib turgan uy binosinigina emas, balki uyni ichidagi odamlar va buyumlari bilan tasvirlaydi.

- 10 yoshdan keyin - haqiqat. Bu bosqichda bolaning chizishi kattalarning chizishiga tenglashadi. Unda u buyum va odamlarni rang va

shakllarni haqiqatdagidek tasvirlashga, ranglarni ma'lum bir qoida asosida ishlatishni boshlaydi.

Bolada chizish qobiliyati kuchlimi, bolamdan buyuk rassom chiqadimi? Afsuski, bolani rasmlariga qarab uning chizish qobiliyatiga baho berib bo'lmaydi, chunki, birinchidan, bolaning chizishiga kattalarning qarashlari katta ta'sir ko'rsatadi, demakki u o'z qarashlarini ifoda etmaydi; ikkinchidan, bolaning rasmlarini psixologiya nuqtai nazaridangina baholash mumkin; uchinchidan, bola chizayotganda qandaydir ajoyib narsa yaratish istagida bo'lmaydi, u shunchaki o'zini ichki tuyg'ularini ifoda etadi xolos. Lekin hayotda bu qoidadan mustasno holatlar uchraydi va farzandimiz kichik Picasso bo'lishi mumkin, ammo bu juda ham kam uchraydigan holat.

Rasm orqali:

1. Bolani aqliy rivojlanishi aniqlanadi: bola chizayotgan narsasi o'rtacha normal ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi va uning rivojlanish darajasi ko'rinadi;

2. Bolaning psixologik holati aniqlanadi: psixologik holati zaif bo'lgan bolalar chizishni istamaydi yoki chizgan buyumlari qayta-qayta chizilaveradi;

3. Bolaning kayfiyati aniqlanadi: bola tanlayotgan ranglar, shakllar, ularning katta kichikligi bolaning ichki kechinmalariga baho beradi. Masalan, xafa yoki kasal bo'lgan bolalar to'q ranglarni ishlatishni yaxshi ko'radi.

Bolaga rasm chizish nima uchun kerak? Rasm darslari tufayli boladagi nafaqat tasavvuri rivojlanadi, shuningdek undagi ko'rish, sezish, his qilish, mushak tizimlari kabi barcha harakat organlari ishga tushadi. Shu bilan birgalikda boladagi xotira, diqqat e'tiborni jamlay olish xislatlari kuchayadi. Rangtasvir bolani buyumlar hajmi, shakli rang tusi jihatidan bir-biridan farqini topish, kompozitsiyani his qilish, tuzish, fikrlash va tahlil qilishga o'rgatadi. Uning bu yutuqlari boshqa umumta'lim fanlarini o'zlashtirishida o'z aksini topadi.

Chizishga bo'lgan hohish har bir bolada bo'ladi, lekin bu hohish ish jarayonida asta-sekin shakllanib, ijodiy jarayonga nisbatan qiziqishga aylanib boradi. Chizish bilan asosan 5yoshdan boshlab shug'ullanishi juda foydali, aynan shu yoshlarda boladagi fantaziya va tasavvur qilish qobiliyatlari nisbatan yaxshi rivojlanish vaqti

hisoblanadi. Shuning uchun keyinchalik farzandlarimizning hayoti har xil ranglar va taasurotlarga boy bo'lishi uchun aynan shu davrda bolani har tomonlama rivojlantirish imkoni ko'proq!

Kelajagimiz mevalari bo'lgan har bir yosh uchun kerak bo'ladigan – ko'rish xotirasi miyaning tasvirdagi detallarni esda saqlab qolish qobiliyati hisoblanadi. Buni har bir bolada tinimsiz rivojlantirib borish zarur. Bog'chadagi mashg'ulotlar jarayoni va mashg'ulotdan tashqari paytlardagi ota-ona bu qobiliyatlarini rivojlantirib borish imkoni ko'proq bo'ladi. Bu jarayonni ayniqsa to'garak mashg'ulotlarida qo'llash samaraliroq bo'ladi. Chunki darsdan tashqari paytlardagi mashg'ulotlarda o'quvchilar soni maktab yoki kollejlardagi (sinfda kamida 25 o'quvchi bo'ladigan) darslarga nisbatan kamroq bo'lib, bu o'quvchilar bilan individual holda erkin ishlash imkoniyati bor. Shuning uchun biz boladagi ko'rish xotirasini aynan mana shu ijodiy to'garaklardagi mashg'ulotlar jarayonida qanday rivojlantirish mumkinligini ko'rib chiqamiz. Kamchilik o'quvchilar bilan shug'ullaniladigan to'garak mashg'ulotlarida shu mavzuga mos mashqlar o'tkazish mumkin.

Birinchi variant; Bu mashqlarni ikki yoki uch o'quvchi ishtirokida bajarish mumkin. Agar guruhda ko'pchilik bo'ladigan bo'lsa ham buning echimini topish mumkin. Bu holda auditoriyaning bir qismida asosiy guruhga xalaqit bermaydigan holda alohida yana bir natyurmort qo'yiladi. Guruhdan 2 yoki uch o'quvchi tanlab olinadi. Bunda o'quvchilar bir-birining ishlarini ko'rmaydigan sharoitda, bir biriga qarama qarshi holatda joylashishadi, agar uch kishi bo'ladigan bo'lsa "P" harfi shaklida joylashib o'tirishadi. Oldindan o'quvchilar ishtirokisiz tuzilgan va ularga ko'rinmaydigan qilib bekitib qo'yilgan natyurmortni ochishdan avval bu vazifaning maqsad va vazifalarini tushuntirib o'tamiz.

Ularga qo'yilgan natyurmortga 30 soniya butun diqqatingizni jalb qilib qarashi va bunda albatta kompozitsiyaning qanday joylashganligi, undagi har bir buyumning o'rni, o'zaro nisbatlarini eslab qolishga harakat qilishi so'raladi. O'quvchilar natyurmortga yaxshilab qarab olgandan so'ng natyurmortni yana bekitamiz va o'quvchi kuzatgan kompozitsiyani hayolan chizishga kirishadi.

Bu mashqlarda ulardan natyurmortdagi buyumlarning shakli va o‘zaro joylashishini tezkor qalam chizgilar yordamida tasvirlash talab qilinadi. Mashq ketma-ket uch marta (har doim yangi qog‘ozlarda) qaytariladi. Mashq oxirigacha bolalardagi yutuq toboro o‘shib borganini kuzatamiz.

Ikkinchi variant; bu erda ham o‘quvchilar birinchi variantda bo‘lgandek joylashadilar. Qo‘yilgan natyurmortni qog‘ozga chizib olinadi, keyin natyurmortni ularga ko‘rinmaydigan qilib bekitamiz va yangi qog‘oz olib kompozitsiyani eslash qobiliyatlarini ishga solib, tasavvur asosida natyurmortni qaytadan chizish so‘raladi. Ma‘lum vaqt o‘tib kompozitsiyaning birinchi bosqichi tugab, kompozitsiya qog‘ozga joylashtirilgandan so‘ng natyurmort yana ochiladi va o‘quvchilar joylashtirishdagi o‘z xatolarini tushunib etishadi. Keyin ishning ikkinchi bosqichida natyurmortdagi soya-yorug‘ va tus nisbatlariga ishlash so‘raladi va mashq avvalgi bosqichda bo‘lgani singari davom ettiriladi. Bu hol natyurmortni tugatish bosqichiga qadar bir necha bor takrorlanadi. Bu erda avvalgi mashqdan farqi faqat bitta qog‘ozda boshlanib shu qog‘ozda oxirigacha bitiriladi. Har bir bosqichda o‘quvchilar bu mashqlarni bajarish natijasida ulardagi ko‘rish xotirasining yaxshilanib borayotganligining guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Qo‘ziev, A.Egamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov – Rangtasvir 5-9 sinflar uchun “San’at” Jurnal nashriyoti, Toshkent-2003
2. R. Rajabov, H. Sulstonov – Tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma). Toshkent–2008
3. J. Majidov. Maktabda tasviriy san’at bo‘yicha o‘quv tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. T. 1995.
4. B.Tojiev. N. Isaxojaeva. Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari. Toshkent-2000

